

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining tarbiyalanuvchilar bilan muloqotida kreativ yondashuv

Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi, Rafiyeva Mohichehra Bekzod qizi

TAFU, "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrası o'qituvchisi, TAFU, Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi

nazarmatovadilshoda6@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10462914>

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslashuvida, interaktiv metodlardan foydalangan holda bolalarning muloqotchanligini shakllantirishda tarbiyachining o'rni, shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar, tarbiyachi-pedagoglarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatga kreativ yondashuvi hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining pedagogik mahorati va qobiliyatiga bog'liqligi xususida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha yosh, kreativlik, faoliyat, muloqot, kommunikativlik, pedagog, kompetensiya ta'lim-tarbiya, rag'batlantirish.

KIRISH

Globallashuv sharoitida maktabgacha ta'lim tizimining innovatsion rivojlanish tendensiyalari, axborot maydonining tez kengayishi, maktabgacha ta'lim tashkiloti mutaxassislarini kasbiy tayyorlashning muammolari alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish shaxsni rivojlantirishni ustuvor vazifalardan biri sifatida ilgari suradi. Kelajak avlodning ijodiy rivojlanish darajasi ko'p jihatdan pedagogik kasbiy mahoratga, ijodiy qobiliyatga, pedagogning kasbiy tafakkuriga, uning pedagogik faoliyatga tayyorligiga bog'liqdir. Shuning uchun ham zamonaviy oliy ta'lim tizimida muhim masala talabalarning kasbiy tayyorgarligi, – bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilganidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yagona davlat o'quv dasturi bo'lgan "Ilk qadam" takomillashtirilgan davlat dasturida ham maktabgacha yoshdagi bolalarning tayanch kompetensiyalaridan biri bo'lgan ijtimoiy kompetensiyalarini, kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda bolaning belgilangan tartib va odob-axloq qoidalariga rioya qilgan holda tengdoshlari va kattalar bilan birgalikda ishlash qobiliyatlarini, muloqot qilish qobiliyatlarini, bolalarda lug'at boyligini oshirish va nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun tarbiyachining kreativ yondashuvini shakllantirishdan iboratligi belgilab berilgan.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy rivojlantirishni ta'minlaydigan zamonaviy ta'lim dasturlari, ilg'or axborot va pedagogik texnologiyalarini joriy etish, ularni maktabga tayyorlash darajasini oshirish, maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy standartlarini yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 487-sonli qarori muhim ahamiyat kasb etadi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yildagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 son Farmoni [2]

4-bobining 38-,39-,40-maqсадlarida Maktabgacha ta'lim tizimini ta'lim sifati, qamrov darajasi va sifatli budjet maqsadlarining maqsadli va sifatli sarflanishini ta'minlash hamda 42-maqsadida 2026-yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish kabi maqsadlarni o'zida aks ettirgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Ota-bobolarimiz azal-azaldan bola tarbiyasiga alohida e'tibor qaratganlar [3]. Sharq mutaffakirlari Abu Nasr Farobiy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Abu Ali Ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Kaykovus, Iso at-Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Az-Zamaxshariy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon singari fozilufuzalolarning ta'lim-tarbiya borasidagi qarashlari bugungi kungacha o'z qiymatini yo'qotmagan. Shuningdek, ularning asarlarida bola bilan qanday ishlash kerak, unga qanday yondasha bilish kerak, uning qobiliyati, qiziqishi, ijodkorligini inobatga olib harakat qilsagina, bolaning kelajak kamolotiga ta'siri xususidagi qarashlari o'z ifodasini topgan. Abu Rayhon Beruniyning bilim egallash yo'llari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. O'quvchiga bilim berishda ularni zeriktirmaslik, uzviylik, izchillik va hokazolarni e'tiborga olish kerakligini uqtiradi. Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Bu hozirgi zamon pedagogikasida ham e'tirof etiluvchi omillar- irsiyat, muhit va tarbiyadir.

Shuningdek, xorijiy olimlarning ham kreativlik to'g'risidagi fikrlari turlichadir. Jumladan, Olima D.B. Bogoyavlenskayaning nuqtayi nazariga ko'ra, ijod(korlik) intellektual faollikning eng yuksak shakli, intellektual tashabbus sifatida xizmat qiladigan eng muhim sifat tavsifi hisoblanadi [4]. Olima kreativlikka berilgan vazifa chegarasidan tashqariga chiqishga intilishda namoyon bo'ladigan vaziyatli stimullar berilmagan faollik deb qaraydi. D.B.Bogoyavlenskayaning fikriga ko'ra, kreativlik faoliyat turidan qat'i nazar, barcha novatorlarga xos. Olimaning fikricha, uning o'zi integral hosila deb

tushunadigan intellektual faollik, tizimning intellektual va motivatsion komponentlarining protsessual o'zaro faoliyati ularning birligida aks ettiriladigan yaxlit shaxsning xossasi bo'lib, u shaxsning vaziyat-stimul berilmagan mahsuldor faoliyatga bo'lgan qobiliyatini ta'minlaydi. Biroq ushbu ko'rsatkichlarning bog'liqligi barcha holatlarda ham kuzatilmaganligi tufayli ularni bir-biridan farqlash va intellektual iqtidorlilik hamda ijodiy iqtidorlilik va mahsuldorlikni tashxis qilishning alohida metodikalarini yaratish zarurati paydo bo'ladi.

Olim Drujininning fikriga ko'ra, mikromuhitning xulq-atvorni tartibga solishning past darajasi, kreativ xulq-atvor namunalarining predmetli-axborot jihatdan boyitilganligi va berilganligi kabi parametrlarning birga kelishi kreativlikning rivojlanishiga yordam beradi.

G'arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noa'naviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud bo'lishiga e'tiborni qaratadilar. Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug'ilish jarayoni, deb tushunadilar. Garchi g'arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo'lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar.

NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim bolaning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. U ta'limning keyingi bosqichlarida, shuningdek, butun hayoti davomida rivojlanib boradi. Davlat o'quv dasturi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan. Bu maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonida bolalar faoliyatining turli-tuman turlarida shakllanadigan kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv bolalarning bilish bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlari, muammolar va imkoniyatlarga samarali javob berish qobiliyatini shakllantirish, axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni rivojlantirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, shaxsiy "Men" konsepsiyasini shakllantirishni o'z ichiga oladi [5].

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tayanch kompetensiyalariga: ● Kommunikativ. ● Ijtimoiy. ● Shaxsiy ("Men" kontsepsiyasini qurish). ● Bilish kompetensiyalarini o'z ichiga oladi.

Har bir kompetensiya bir biriga uzviy bog'liq hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ kompetensiyasi bu - bolalarning atrofda odamlar bilan o'zaro munosabatlarning konstruktiv usullari va vositalariga ega bo'lishni, muloqot qilish, o'yin, bilish, maishiy va ijodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyati hisoblanadi. Ushbu kompetensiyaga nutqni rivojlanishi ham kiradi. Nutq bolaning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishi hamda dunyoni bilishi uchun zarur vosita hisoblanadi. Mazmunga boy va rag'batlantiruvchi ta'lim muhitida bolalar og'zaki va

yozma muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradilar, bu ularga o'zlariga ishonishga, boshqalar bilan munosabatlarni o'rnatishga, dunyo haqidagi tushunchalarini shakllantirishga, mashg'ulotlarda ishtirok etishga va loyiha ishlarini jamoa bo'lib bajarishga yordam beradi. Bolalar kattalar va boshqa bolalar tomonidan tushunilishlari uchun o'zlarini namoyon etishlari mumkin. Ular aytilganlarni tushunish uchun tinglaydilar va kuzatadilar; savol va topshiriqlarni eshitadilar va shunga mos javob berishadi. Ular nutqni, ayniqsa o'qish va yozishni o'z ichiga olgan mashg'ulotlarga ijobiy qarashadi. Ular nutqning turli shakl va funktsiyalarini biladilar, ulardan foydalanadilar va kerak bo'lganda ularni turli xil muloqot holatlarida moslashtiradilar. Bu kompetensiya, shuningdek, axborot olish uchun turli xil aloqa vositalari mustaqil foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi; ta'lim olishi va rivojlanishida foydalanish uchun kerakli ma'lumotlarni qidirish, tahlil qilish va tanlash, ularni tartibga solish, o'zgartirish, saqlash qobiliyatini mustahkamlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida belgilab berilgan ushbu kompetensiyalarning maqsadi ham bolaning muayyan vaziyatlarda olgan bilim, ko'nikma va malakalarini maqsadga erishishi yo'lida qo'llay olishidir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining ham asosiy vazifasi tarbiyalanuvchilarning lug'at boyligini oshirishda, bolalarning ijtimoiyashuvini ta'minlashda, kattalar bilan muloqotga erkin kirisha olishida va tengdoshlari o'rtasida o'zining fikrini mustaqil bildirishini ta'minlash uchun muloqotda kreativ bo'lishi maqsad qilib qo'yilgan. Tarbiyachi-pedagogning kreativ potensialini quyidagicha belgilash mumkin: Birinchidan, maqsadli motivli yondashuv (bunda pedagogning qiziqishlari, motivlari ta'limiy faoliyatlarini tashkil etishga intilishida ko'rinadi). Ikkinchidan, tezkor yondashuv (mantiqiy fikrlashga doir harakatlar amaliy faoliyat usullaridan foydalanishida ko'rinadi). Uchinchidan, refleksiv baholash (bunda o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini baholashda ko'rinadi). Tarbiyachi-pedagog o'zida kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tiborini qaratmog'i lozim:

1. O'quv mashg'ulotlarni tashkil etishda nostandart usullardan foydalanish.
2. O'zida tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish.
3. Ijodiy fikrlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga va yangilik yaratishga intilish. Bir qolipda fikrlamaslik.
4. Bolalarning har qanday yutuqlarini maqtashi, rag'batlantirishi.
5. Bolalarga nisbatan ijodiy yondashish va ijodiy muhitni tashkil qilish.
6. Muammoni qo'yish yoki muammoli vaziyatni yaratish.
7. Kreativ maydonni yarata olish.
8. Kreativ insonlar bilan ko'proq muloqotda bo'lish. Bu kabi sifatlarni o'zida mujassamlashtirish uchun tarbiyachi pedagog o'z ustida tinmay mehnat qilishi talab etiladi. Tarbiyachi bu - faqat hamma bilan oson til topishadigan insongina emas, balki bolalarni rivojlanishi uchun eng yuqori imkoniyatlarni yaratgan

holda materiallarni tanlaydigan insondir. Bolalarning kreativ, ijodiy rivojlanishi, muloqot qila olishi uchun imkoniyat yaratish, bolalar o'z his tuyg'ularini ifodalashda o'zlarini erkin sezishlari tarbiyachining pedagogik mahoratiga, kreativligiga bog'liq.

MUHOKAMA

Zamonaviy ta'lim barcha turdagi ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning kreativ bo'lishlarini taqozo etadi. Ko'p holatda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari o'zlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas, deb hisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin: birinchidan, aksariyat tarbiyachilar ham aslida "kreativlik" tushunchasi qanday ma'noni anglatishini yetarlicha izohlay olmaydilar; ikkinchidan, kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan bexabarlar. Ayni o'rinda shuni alohida qayd etib o'tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Bu o'rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: Agarda o'zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo'lganingiz yoki bo'lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g'oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir. Patti Drapeau nuqtai nazarida, kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Kreativlik - bu insonning fikrlashida, his tuyg'ularida, muloqotida namoyon bo'ladigan ijodiy qobiliyatidir. G'arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud bo'lishiga e'tiborni qaratadilar. Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug'ilish jarayoni, deb tushunadilar. V.A.Suxomlinskiyning fikricha: Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining ijodi "faoliyat ob'yekti bola, doimo o'zgarib turadigan, bugun, yangi kechagiday emas" bo'lishi kerak, deya ta'kidlab o'tgan.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari tarbiyalanuvchilar bilan muloqotida avvalo qanday qilib o'zida kreativlik qobiliyatini yuzaga chiqarishni, ta'lim-tarbiya jarayonida ularning tayanch kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan qator ishlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

XULOSA

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishdagi asosiy vazifalardan biri, bolalarga tarbiyachi tomonidan mashg'ulot jarayonini noodatiy qilib o'tkazish talab qilinadi. Chunki, har bir bola o'yin orqali, turli qiziqarli mashg'ulotlar bo'lsagina mashg'ulot jarayoniga qiziqadi va bor e'tiborini qaratadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi o'zaro muloqotga kirishadi. Tarbiyalanuvchilarni mashg'ulot jarayoniga qiziqitira olishi va ular bilan muloqot qila olishida tarbiyachining kreativligi asosiy jihatlardan biri hisoblanadi. Tarbiyachi kreativ fikrlari va qiziqarli o'yinlari bilan mashg'ulotni olib borish jarayonida o'zaro bolalar bilan kreativ muloqotga kirisha olishi bolalarning rivojlanishiga, o'qishga, ta'lim olishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishi, ularning eng katta yutug'i hisoblanadi. Bu samaradorlik esa, har bir bolaning jamoa bilan muloqotga kirishishida qiyinchilik tug'dirmaydi, chunki atrofidagi tengdoshlariga qarab, o'zini yengil his qiladi. Bu esa, tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muloqotida kreativ yondashuvining natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan

adabiyotlar

ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 487-sonli qarori.11.06.2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 son Farmoni. 28.01.2022.
3. Mirzayeva D.Sh.Maktabgacha pedagogika / O'quv qo'llanma -Toshkent, 2022.
4. Akbarovna, Abdullajonova Shaxnoza. "Inclusive education and its essence". International journal of social science & interdisciplinary research. ISSN:2277-3630.Impact factor: 7.429 11.01 (2022): 248-254.
5. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun davlat o'quv dasturi "Ilk qadam". Takomillashtirilgan ikkinchi nashri. 2022-yil, 4-fevral.
6. <http://www.preschool.by.ru>